

**ESHQOBIL SHUKUR SHE'RLARIDA MORFOLOGIK BIRLIKLER
TAKRORI ORQALI KONNOTATSIYANING IFODALANISHI**

Rahmatova Sevara,
*O'zbekiston Milliy universiteti
tayanch doktoranti*
E-mail: ummuabdulaziz418@gmail.com

Аннотация. Badiiy matn ta'sir doirasini kengaytirishda takrorning o'ziga xos o'rni bo'lib, shoir takrordan mohirona foydalanish orqali she'rning yanada ta'sirchan va ohangdor bo'lishiga erishadi. Ushbu maqolada nutqda turli konnotativ ma'nolar ifodalashga xizmat qiluvchi til birliklari takrori haqida, shu bilan birga, taniqli o'zbek shoiri Eshqobil Shukur she'rlarida qo'llangan morfoloqik takrorlarning matn ta'sir kuchini oshirishdagi ahamiyati xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: morfoloqik takror, konnotativ ma'no, ijobiy munosabat, ta'sirchanlik, egalik qo'shimchalar.

Abstract. Repetition has a special role in expanding the scope of the artistic text, and the poet makes the poem more impressive and melodious by skillfully using repetition. This article talks about repetition of language units that serve to express different connotative meanings in speech, at the same time, about the importance of morphological repetitions used in the poems of the famous Uzbek poet Eshqobil Shukur in increasing the impact of the text.

Key words: morphological repetition, connotative meaning, positive attitude, affectiveness, possessive adverbs.

Ma'lumki, konnotatsiya tilning ekspressivlik xususiyatini aks ettiruvchi hodisadir. Dunyo tilshunosligida, xususan, rus tilshunosligida o'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab til birliklarining konnotativ xususiyatlari qator tadqiqotlarning tekshirish obyekti bo'ldi [Филипов А.В, 2:57, Арнольд И.В, 1: 3, Чернец А.О, 5: 233, Вострякова Н.А, 4:35]. Bu muammo bugungi kunda lingvostilistika, pragmalingvistika, lingvopoetika yo'nalishlaridagi tadqiqotlarda chuqr o'rganilmoqda. Badiiy nutqda konnotativlikning ifodalishi masalasi o'zbek tilshunosi S.Maksumovaning "E.Vohidov asarlarida konnotativlikning ifodalishi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida maxsus tadqiq qilingan. Ushbu tadqiqot ishida shoir she'rlarida konnotatsiyaning fonetik, leksik, morfoloqik, sintaktik vositalar orqali hosil qilinishi masalasi o'rganilgan [Максумова, 2012: 21].

Konnotativ birliklar ta'sirchanlikni ifodalash fonida tinglovchiga hissiy ta'sir ko'rsatish, unda turli javob reaksiyalari, emotsiyalarni hosil qilish vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, konnotatsiya baho munosabati kategoriysi bilan ham bevosita bog'lanadi. Nutq egasi voqelikka salbiy yoki ijobiy bahosini bildirishda til birliklariga konnotativ vazifa yuklaydi yoki uning bu vazifasidan foydalanib, nutqining ta'sirchan bo'lishiga erishadi. Masalan, erkalash grammatik ma'nosini hosil

qiluvchi *-jon*, *-xon*, *-oy*, *-boy*, *-bek* affikslarining shaxs otlari, kishi ismlariga qo’shilishi natijasida hosil bo‘lgan *oyijon*, *bolajon*, *akaxon*, *Nargizaoy*, *Karimboy*, *Alisherbek* so‘zlari shaxsni anglatish bilan birga erkash, hurmat ma’nolarini ifodalab, konnotativ birlikka aylanadi. Shu bilan birga, nutq egasining ijobiy munosabatini aks ettirishga xizmat qiladi. Konnotatsiya nutqda tilning fonetik, leksik, grammatik, intonatsion vositalari orqali ifodalanadi. Ushbu maqolada grammatik vositalarning konnotatsiyani ifodalashdagi ahamiyati taniqli o’zbek shoiri Eshqobil Shukur she’rlari misolida yoritiladi.

Muloqot jarayonida o’zbek tilidagi ayrim morfologik birliklarga konnotativ ma’no yuklanadi. Masalan, ko’plik qo’shimchasi kesatiq, hurmat ifodalash, ma’noni bo’rttirish kabi vazifalarda qo’llanganda ta’sirchanlikni hosil qiladi va nutq egasining hissiy munosabatini aks ettirib, konnotativ xususiyatga ega bo’ladi. Xuddi shunday, kichraytirish qo’shimchasi ham ta’sirchanlikni hosil qilish maqsadida o’z grammatik ma’nosidan boshqa ma’nolarda, xususan, kesatiqni ifodalashda qo’llanganda salbiy hissiy munosabatni yuzaga chiqarib, konnotativ vazifa bajaradi.

Ammo o’zbek tilida shunday lug‘aviy shakl yasovchilar ham mavjudki, ular so’zga birikib kelganda grammatik ma’nosi ta’sirida turli konnotativ ma’nolarni hosil qiladi. Masalan, erkash, suyish ma’nolarini ifodalovchi *-jon*, *-xon*, *-gina* kabi morfologik vositalar so’zga birikib kelganda ta’sirchanlikni hosil qilish hamda ijobiy hissiy munosabatni yuzaga keltirish orqali konnotativ vazifa bajaradi. Demak, morfologik birliklar ikki holatda konnotativ ma’noni ifodalarydi:

- 1) zimmasiga konnotativ vazifa yuklatilganda ta’sirchanlikni hamda subyektiv munosabatni hosil qilib, konnotativ xususiyatga ega bo’ladi;
- 2) grammatik ma’nosi ta’sirida ta’sirchanlik hamda subyektiv munosabatni hosil qilib, konnotativ xususiyatga ega bo’ladi.

E.Shukur she’rlarida ham morfologik vositalarga konnotativ ma’no yuklanishi kuzatiladi. Shuningdek, ayrim morfologik vositalar grammatik ma’nolari asosida konnotatsiyani ifodalarydi. Shu bilan birga, shoir she’rlarida asosiy hollarda morfologik vositalar takrori orqali konnotatsiyani ifodalashga e’tibor qaratiladi. Masalan, uning she’rlarida egalik va kelishik qo’shimchalari so‘zlar tarkibida takrorlanib, konnotativ ma’noga ega bo’lgan. Quyidagi misollarga e’tibor qaratamiz:

Tilim tiyildi mening, so’zim qiyildi mening,

Po’lat til topib oldim, havo so’z topib oldim... (“Chanqovuz”)

E’tibor berilsa, *-im* egalik qo’shimchasi turli so‘zlar tarkibida (*tilim*, *so’zim*) takrorlangan, *-ning* qaratqich kelishigi esa bir so‘z (*mening*) tarkibida kelsa-da, misrada ikki marta takrorlangan. Egalik qo’shimchasining turli so‘zlar tarkibida

takrorlanishi egalik ma’nosining alohida ta’kidlanishiga xizmat qilgan. Qaratqich kelishigidagi olmosh takrori orqali lirik qahramon shaxsi (“men”i) ajratib ko’rsatilgan, natijada ta’sirchanlik yuzaga kelgan.

Shoirning “Bu ne tamannodir...” deb boshlanuvchi she’rida egalik qo’shimchasi hisobiga *suygu* (*sevimli* ma’nosida), *oygul*, *yolg’iz* so‘zlari konnotativ ma’noga ega bo‘lgan. Bu so‘zlarda egalik qo’shimchasining takrorlanishi (*suygulim*, *oygulim*, *yolg’izim*) ijobiy hissiy konnotatsiya kuchi yanada ortgan:

*Bu ne tamannodur, bu ne ko’rkam noz,
Suygulim, oygulim, chaqmoqning qizi,
Men odam bolasi, mening umrim oz,
Sizga yo’qdir o’lim, mangu yolg’izim.*

Shoir she’rlarida ba’zan egalik qo’shimchali so‘zshakli -lar ko‘plik qo’shimchasini olib takrorlanadi:

*Mening qo’lim ochiq, qo’llarim ochiq,
Kaptarlar don terib edilar undan.
Mening qo’lim ochiq, qo’llarim ochiq,
Yulduzlar qon so’rib edilar undan. (“Mening qo’lim ochiq...”)*

Ushbu she’riy parchada *qo’lim* so‘zshakli *qo’llarim* ko‘plik shaklida takrorlangan. Shoir *qo’lim* so‘z shakliga -lar ko‘plik qo’shimchasini qo’shish orqali har ikki qo’1 ham to‘la ochiqligi ma’nosini bo’rttirgan. She’r davomida ushbu so‘z shaklining takrorlanishi natijasida qo’li ochiqlik alohida ta’kidga ega bo‘lgan. Natijada she’rda o’ziga xos ta’sirchanlik yuzaga kelgan. Shuningdek, takror orqali ohangdorlik, muallifning ijobiy munosabati ham namoyon bo‘lgan.

E.Shukur erkalash, suyish ma’nosini hosil qiluvchi affikslarni so‘z tarkibida takror qo’llab, she’rlarida ular orqali ifodalangan konnotativ ma’noni kuchaytirgan. Bunday birliklar orqali muallifning tasvirlanayotgan obyektga nisbatan ijobiy baho munosabati yuzaga chiqqan.

Shoir quyidagi she’rida -jon affiksining suyish, e’zozlash konnotativ vazifasidan bevosita foydalangan:

*Sovuq qotmadingmi, singlim, egachim,
– Akajon, jonimdan o’tmoqda ayoz –... (“Yangi yil she’ri”)*

Quyidagi she’rida esa -jon affiksli undalma har misrada takrorlanib, ta’kid, undash ma’nolarini kuchaytirgan, shu bilan birga, lirik qahramonning “to’rajon”ga nisbatan ijobiy munosabatini aks ettirishga xizmat qilgan:

*Sendan, mendan davron o’tdi, to’rajon,
Bir maydonda maydon o’tdi, to’rajon,*

Kul kulbadan sulton o ‘tdi, to‘rajon,

Gul gulbadan giryon o ‘tdi, to‘rajon. (“Alpomish” ohanglarida”)

Shoir she’rlarida bo‘lishli fe’l bo‘lishsiz shaklida, -gin shaklli buyruq-istak mayli nol ko‘rsatkichli shaklida yoki fe’l zamonlari turli shakllarda takrorlangan o‘rinlar ham uchraydi.

Bo‘lishli fe’l bo‘lishsiz shaklida takrorlanganda she’riy matnda harakatning bajarilmaganligiga nisbatan e’tiroz yoki bu harakatni e’tirof etish, unga tahsin aytish kabi qo‘shimcha ma’nolar hosil bo‘ladi. Natijada she’rda ta’sirchanlik yuzaga keladi. Shuningdek, bir fe’lning turli shakllari takrori natijasida she’rda ohangdorlik hosil bo‘ladi. Masalan:

Yoriltoshlar yorildi,

Yorilmading sen.

Burim sochlar burildi,

Burilmading sen... (“Qiz qo‘shig‘i”)

Fe’lning buyruq-istak mayli shakllari takrorlangan quyidagi parchada esa iltimos, istak ma’nolariga talab ma’nosi qo‘shilib, ta’sirchanlik ortgan. Masalan:

Men og‘ir uyquda... Ko‘rpam kumush qor.

Sen meni uyg‘otgin, uyg‘ot, zulfiqor. (“Qahraton chillasi...”)

Fe’lning kelasi zamon formasi turli shakllarda takrorlangan quyidagi parchada nafaqat harakat ma’nosi alohida ta’kidga ega bo‘ladi, balki kelasi zamon ma’nosi o‘tgan zamon ma’nosiga ko‘chadi:

To ‘qilgan o ‘rmakning ustidan

Tuyalar karvoni adashmay kelar,

Buddalar keladi, zardushtlar kelar,

O ‘rmak to ‘qiyverar Dalvarzin momo... (“Dalvarzin momoning qilichi”)

E.Shukur she’rlarida yordamchi so‘zlar takrori vositasida ham konnotativ ma’no ifodalanganadi. Masalan:

Bir o ‘choq olov yutdim,

Dil gurkirab yondi-ya!..

Oyga osib, kunga tutdim,

Yulduzim uyg‘ondi-ya. (“Muhabbat”)

Oydin oy ham bag‘ringga jim botar biram-ey,

Gulchambarday bo ‘yningga qo ‘l osar jo ‘ram-ey. (“Xalq ohangida”)

Birinchi she’riy parchada -ya ta’kid va kuchaytiruv yuklamasi turli fe’llar tarkibida takrorlangan. Natijada she’rda ta’sirchanlik va ijobiy hissiy munosabat ifodalangan. Keyingi she’rda esa -ey yuklamasi *biram*, *jo ‘ram* so‘zlariga birikib

kelgan holda takrorlangan. Yuklamaning takrori misralarda xalqona ohangdorlikni hosil qilgan. Shu bilan birga ta'sirchanlik va lirk qahramonning vogelikka nisbatan ijobjiy munosabatini ifodalashga xizmat qilgan.

Xullas, Eshqobil Shukur takror yordamida morfologik birliklarga turli konnotativ ma'nolarni yuklagan. Natijada bunday birliklar ta'sirchanlikni ta'minlashga, ma'noni kuchli ifodalashga, bo'rttirishga, ta'kidni hosil qilishga ham xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арнольд И.В. Функции коннотативных значений слов в поэтическом тексте // Структура и семантика предложения и текста в германских языках. – Л., 1987. – С.3-9.
2. Вострякова Н.А. Понятие коннотации в современной лингвистике // Разноуровневые характеристики лексических единиц. – Смоленск, 2001. Ч. 1. – С.35-42.
3. Максумова С. Э.Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 21 б.
4. Филлипов А.В. К проблеме лексической коннотации // Вопросы языкознания. – М., 1978. – № 1. – С.57-63.
5. Чернец А. О. Проблемы эмотивности и коннотации // Некоторые вопросы общего и частного языкознания. – Пятигорск, 2001. – С.233-241.
6. Шукур Е. Ҳамал айвони. - Шарқ.-Тошкент-2002.
7. Шукур Е. Соchlari сумбул-сумбул.- Faafur Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.- Тошкент- 1988.